



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ERTAKTERAPIYA NAZARIYASI

Andijon Davlat Pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi O.Mirzayev
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi
N.Eshonqulova

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15228438>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ertakterapiyasi tarixi, kelib chiqishi, olimlarning fikrlari, ertakterapiyaning bola hayotida qanday ro'l o'ynashi, bolaning xulq atvorini to'g'ri shakillantirish, boladagi qo'rquvni qanday yo'qotish, bir-birlariga bo'lgan hurmat va mehr-muhabbatini oshirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ertakterapiya, axloq, ertak, yosh avlod, tarbiya vositasi, psixologiya, inson tarbiyasi.

Ertak terapiyasi-bu ertaklar yordamida insonning psixologik holatini yaxshilash, hissiyotni boshqarish va shaxsiy rivojlanishga ko'mak beruvchi terapiya usulidir. Bu metod ayniqsa bolalar, shuningdek, kattalar uchun ham samarali bo'lib, ertaklar orqali turli muammolarni tushunish, stressni kamaytirish va o'zini anglash imkonini beradi.

Ertaklar badiiy va adabiy asar bo'lib, bir vaqtning o'zida xalq uchun ko'plab nazariy va amaliy sohalaridagi axborotlar manbai hisoblanadi. Ular xalq pedagogikasining boyligi hisoblanadi. Qolaversa, ularda pedagogik g'oyalar mavjudligi uchun ertaklarni pedagogik asarlar qatoriga qo'shsak ham bo'ladi. Ma'lumki, rus klassik pedagogi Ushinskiy pedagogik sohada ideal, mukammal aqliy va axloqiy-estetik rivojlanishning uyg'un shaxsi edi. Buyuk rus pedagogining qat'iy ishonchiga ko'ra, xalq ertaklari materiali ta'limda keng qamrovda qo'llanilsa, bu vazifani muvaffaqiyatli hal etish mumkin. Ertaklar tufayli mantiqiy fikrga ega bola qalbida go'zal she'riy obraz birgalikda rivojlanadi, hamda so'z-mantiq tafakkuri, fantaziyasi, emotsional sohasi rivojlanishi guvohi bo'lishimiz mumkin. Ushinskiy ertaklarning pedagogik mazmuni va ularning bolaga psixologik ta'sir masalasini kengroq darajada o'rganib chiqdi. U xalq ertaklarini, bolalar uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotlarida nashr etilgan hikoyalardan afzal deb bildi, chunki hikoyalar buyuk pedagog tomonidan: keksa inson yuzini yosh bolaning yuziga aylantirib qo'ygandek, soxta deb tariflagan edi.

Ertaklar xalq tomonidan asrlar davomida ishlab chiqilgan va sinovdan o'tgan muhim tarbiya vositasidir. Hayotda, inson tarbiyasi amaliyotida ertakning pedagogik ahamiyatini kattaligi dalillar asosida isbotlandi. Bolalar va ertak bir-biridan ajralmas, ular bir-biri uchun yaratilgan, shuning uchun ham har bir millat o'z xalqining ertaklari bilan tanishish bolaning ta'lim va tarbiya jarayoniga kiritilishi shart. O'zbek pedagogikasida ertaklar haqida nafaqat o'quv materiali, balki pedagogik vosita, usulligi haqida ham fikrlar mavjud. Ertakning pedagogik vosita sifatidagi ma'nosini anglab, shuni tan olish kerakki, agar bolalarga bir xil axloqiy fazilatlarini kamida ming marta takrorlasak ham, bu ular uchun baribir tushunarsiz ya'ni, ma'no mazmuni anglanmagan bo'lib qoladi; lekin ularga xuddi shu fikrga singib ketgan ertak aytib bersangiz, bola bundan hayajonlanib, hayratga tushadi. Ertaklarning tarbiyalanuvchilarda tarbiyaviy roli katta hisoblanadi. Ertaklarning pedagogik ahamiyati insonning aqliy tomoniga emas, balki hissiy va estetik tomoniga ta'sir qiladi, degan fikr bor. Bu fikrga butunlay qo'shilib bo'lmaydi. Aqliy faoliyatni his-tuyg'ularga qarama-qarshi qo'yish tubdan noto'g'ri: hissiy soha va aqliy faoliyat ajralmasdir, his-tuyg'ularsiz, haqiqatni bilish mumkin emas. Ertaklar mavzu va mazmuniga ko'ra tinglovchilarni ko'pincha o'ylantiradi, fikr yuritishga undaydi. Ko'pincha bola ertaklarni eshitishi natijasida "Hayotda bunday bo'lmaydi" degan xulosaga keladi. Beixtiyor savol tug'iladi: "Hayotda nima bo'ladi?" Bu savolga javobni o'z ichiga olgan ertak aytuvchining bola bilan suhbatini ongli holatda amalga oshiriladi. Ammo ertaklar bevosita ongli axborotlarni o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash



kerakki, ertaklarning ongli mazmuni, xalq urf odatlari va an'alarining individual tafsilotlariga, xususan, hatto kundalik maishiy sohaga ham taalluqlidir.

Albatta, ertaklarning tarbiyaviy mazmuni ham ertak aytuvchi shaxsga ham bog'liq. Mahoratli ertak aytuvchilar, odatda, har doim imkoniyatdan unumli foydalanishga harakat qilib savollar yordamida bolada fikrlashni shakllantiradi. Masalan ertak aytib eshittirilgandan so'ng: "Bolalar sizlar nima deb o'ylaysizlar, ertagimizda qanday hayvon bor edi? Xayvonlarning nomlarini eslay olasizlarmi?" va shunga o'xshash savollar orqali bolalardagi kontemplatsiyani rivojlantirish mumkin boladi. Bolalar hodisalar, ishlar va harakatlar mazmunini ertaroq to'g'ri anglashni, hayotdagi har qanday kulgili voqealar ostida haqiqatlar yashiringanini tushunishni o'rganadilar. Har bir ertakda bola uchun zarur bo'lgan axloqiy fazilatlar bor, chunki u hayotdagi o'z o'rnini belgilashi, jamiyatdagi axloqiy va axloqiy xatti-harakatlar normalarini o'rganishi kerak. Faylasuflar ertakni o'rganib, uning ma'nosini insoniyatning ruhiy tajribasi shakllari sifatida ochib beradilar. Filologlar, birinchi navbatda, folklorshunoslar, "Ertak - xalqning unutilmas ruhining kiyimi" deb fikr yuritadilar.

Ertak mavzusi psixologiyaning mustaqil fan sohasi sifatida rivojlanishining butun tarixi davomida to'xtovsiz bahs va munozaralar obyekti bo'lib kelgan. Uzoq vaqtdan beri psixologlar tomonidan ertaklar bir qarashda oddiy lekin, ajoyib hikoyalar ortida yashiringan tarbiyaviy, rivojlanish, psixodiagnostik, psixokorreksiyaviy, psixoterapevtik xususiyati mavjudligi, tan olingan. Biroq, bugungi kunda ham uni yuqori talabga ega deb aytish mumkin emas, bu uning mohiyati, ko'lami va nazariy rejalaridagi savolning yechimining noaniqligi bilan izohlanadi.

Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Ertaklarning pedagogik hamda psixologik ahamiyati kognitiv jarayonlarga ta'luqli emas, balki hissiy va estetik jihatlarga tegishli, degan fikr bor. Bu fikrni to'g'ri deb aytib bo'lmaydi. Kognitiv faoliyatning his-tuyg'ulariga qarama-qarshi degan fikr mutlaqo noto'g'ri: hissiy soha va kognitiv faoliyat ajralmasdir, his-tuyg'ularsiz, biz bilganimizdek, haqiqatni bilish mumkin emas.

Xulosa qilib aytganimizda ertaklar bolaning ma'naviy va axloqiy o'sishiga, ijodkorlik va tasavvur qobiliyatlarini rivojlantirishga, dunyo haqidagi tushunchalari ortishiga, fikrlash darajasi kengayishiga, o'ziga bo'lgan ishonchi ortishiga, shu bilan bir qatorda ichida kechayotgan noo'rin qo'rquvlar yo'q bo'lishiga sabab bo'la oladi. Bolaning nutqini hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishda muhim ro'l o'ynaydi. Ertaklar bolaga o'z tuyg'ularini anglash va boshqalarning his-tuyg'ulariga empatiya bildirishni o'rgatadi. Shunday qilib, ertaklar bolaning butun dunyoqarashini shakllantirishda, uni kelajakda hayotga tayyorlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, ertaklar nafaqat bolalarga dunyoni tushunishda yordam berish, balki ularni haqiqiy hayotga tayyorlashda ham muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

<https://orcid.org/0009-0004-8134-3925> ORCID

5. Xusanovich, M. O. (2024, November). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TADBIRKORLIK MADANIYATIGA O'RGATISH. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 25, pp. 16-18).

6. Mirzayev, O. (2023). ERTAK-TERAPIYASI VA TADBIRKORLIK MADANIYATI ELEMENTLARINING INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING METODIK TIZIMI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(25), 92-94.

7. Khusanovich, T. M. O. DEVELOPING STEAM COMPETENCIES IN OLDER PRESCHOOLERS.